

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yil uchun Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 35 794,4 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024- yil bilan taqqoslaganda 9,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilga nisbatan 113,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 1,9 % ga yetdi.

2025- yil uchun Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



109,8 %

35 794,4
mlrd so'm

113,7 %

1,9 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2024-2025- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	28 655,5	35 794,4	109,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 107,4	34 914,3	109,8
mahsulotlarga sof soliqlar	548,1	880,1	113,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 107,4	34 914,3	109,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 866,5	10 661,7	106,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 688,2	12 977,6	114,6
sanoat	7 716,3	10 152,1	108,7
qurilish	1 971,9	2 825,5	137,9
xizmatlar	9 552,7	11 275,0	107,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 997,1	3 603,6	111,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	977,7	1 264,8	115,5
boshqa xizmat tarmoqlari	5 577,9	6 406,6	103,7

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 38 137,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7,9 % ga yuqoridir.

2024-2025- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2024-2025- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



2024-2025- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,1	97,5
mahsulotlarga sof soliqlar	1,9	2,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31,5	30,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	34,5	37,2
sanoat	27,5	29,1
qurilish	7,0	8,1
xizmatlar	34,0	32,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,7	10,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,5	3,6
boshqa xizmat tarmoqlari	19,8	18,4




2025- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 30,5 % ni, sanoat tarmog'i 29,1 % ni, qurilish 8,1 % ni va xizmatlar sohasi 32,3 % ni tashkil qildi.

2024-2025- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,1 f.p. (2024- yilda – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,4 f.p. (2024- yilda – 1,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 2,6 f.p. (2024- yilda – -0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,4 f.p. (2024- yilda – 2,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2025- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 106,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,5 %), sanoatda – 108,7 % (29,1 %), qurilishda – 137,9 % (8,1 %), xizmatlar sohasida – 107,4 % ni (32,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,8 % (10,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,5 % (3,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % dan (18,4 %) iborat bo'ldi.

2024-2025- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2025- yilda YAHM deflyatori indeksi 2024- yildagi narxlarga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 121,0 % va Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,4 % qayd etildi.

2024-2025- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2025- yil uchun kichik tadbirkorlik 24 269,5 mlrd so'mni tashkil etdi (2024- yilda – 19 253,0 mlrd so'm). YAHMdagi ulushi 69,5 % ni (2024- yilda – 68,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

2024-2025- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd so'm

Ulushi, % da

2024- yil

19 253,0

68,5 %

2025- yil

24 269,5

69,5 %

